



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 26 - yanvar

62-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Surxondaryo viloyatida 2024-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik
uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida**

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 25-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 660-sonli qaroriga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan 2023-yil 31-dekabrda kelishilgan Surxondaryo viloyatida 2024-yilda viloyatda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to'lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan hududiy zonalar bo'yicha koeffitsiyentlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara to'lovlarini hisoblash tartibi 3-ilovaga muvofiq;

Radio, uyali peydjing aloqa antennalarini (texnik uskunalar) o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to'lovlarini hisoblanishi tartibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov)ga qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Viloyat hududiy boshqarmalari, shahar va tuman hokimliklari:

- tasarrufidagi va quyi tizim tashkilotlari tasarrufidagi davlat mulkining xatlovdan o'tkazilishi va foydalanilmasdan bo'sh turgan yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, umumiy foydalanishda bo'lмаган balansdagi yerlar) haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo'lgan muddatda mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa

umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarni;

- quiyi tizimlari tomonidan ma'lumotlarni to'liq va o'z vaqtida Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta'minlasin.

4. Kadastr agentligining kadastrlar palatasining Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov):

- joriy yil 1-fevral sanasiga qadar Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga viloyat hududida mavjud bo'lgan davlat mulki obyektlarining yig'ma kadastr hujjatlarini;

- doimiy ravishda har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar mavjud davlat mulki obyektlarida yig'ma kadastr hujjatlariga o'zgartirish (yangilangan) kiritilganlari to'g'risidagi hujjatlarni elektron holatda taqdim etib borsin.

5. Davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulknning parametrlari va sonini ataylab noto'g'ri qayd etilganligi, natijada ijara to'loving yashirilishiga olib kelganligi holati aniqlangan taqdirda, foydalanganlik davri uchun ijara to'lovinii ikki barobar miqdorida belgilangan tartibda balansda saqlovchidan undirilishi va undirilgan summa Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

6. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari tahririyatiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi hamda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasining takliflari asosida viloyatdagi bo'sh turgan, ijaraga beriladigan davlat tasarrufidagi obyektlar ro'yxatini ommaviy axborot vositalari orqali bepul yoritib borish tavsija etilsin.

7. Viloyat hokimining "Surxondaryo viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'loving eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 18-yanvardagi 7-8-0-Q/23-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetasida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinnbosari A.Oripov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 26-yanvardagi
62-8-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Surxondaryo viloyatida 2024-yil davomida davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr
maydonga ijara to‘loving eng kam stavkalari**

Nº	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Termiz shahar	Tumanlar

Ishlab chiqarish

1	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	13 800	9 740
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari)	13 800	9 740
3	Neft-kimyo sanoati	13 800	9 740
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	13 800	9 740
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
6	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	11 250	8 060
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	13 800	8 060
8	Sanitariya va gaz uskunalarini va mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	13 800	9 740
10	Mashina va uskunalarini ta’mirlash	13 800	9 740
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	13 800	9 740
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	13 800	9 740
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	13 800	9 740
14	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	13 800	9 740
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	43 730	31 690

Qurilish sanoati

16	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	11 250	8 060
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	41 640	29 790

18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	73 080	41 770
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	13 800	9 740
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	13 450	9740
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	43 730	31 690
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	30 970	22 450

O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati

23	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	13 800	9 740
24	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	13 800	9 740
25	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	13 800	9 740

Yengil sanoat

26	To‘qimachilik sanoati	13 800	9 740
27	Tikuvchilik sanoati	13 800	9 740
28	Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	13 800	9 740

Oziq-ovqat sanoati

30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go‘sht, yog‘-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	13 800	9 740
31	Go‘sht mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
32	Sut mahsulotlari sanoati	27 020	19 480
33	Baliq mahsulotlari sanoati	13 800	9 740
34	Tegirmonchilik sanoati	13 800	9 740
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	11 250	8 060
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800	9 740
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	13 800	9 740

Sanoatning boshqa tarmoqlari

38	Tibbiyot sanoati	13 800	9 740
39	Poligrafiya sanoati	33 870	28 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoiy tozalash, bo‘yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	16 930	11 870

Qishloq xo‘jaligi

41	O'simlikshunoslik 1 hektar yer maydoni uchun	5 565 680	3 986 190
42	Issiqxona xo'jaligi	10 440	8 960
43	Chorvachilik va parrandachilik	6 610	4 810
44	Baliqchilik (shu jumladan, sun'iy maydon) 1 hektar uchun	5 565 680	3 986 190
45	Asalarichilik 1 hektar yer maydoni uchun	3 618 040	2 591 230
46	Veterinariya xizmatlari	13 800	9 740
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	13 800	9 740
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan, bog'lar) 1 hektar yer maydoni uchun	5 565 680	3 986 190

Transport va aloqa

49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	13 800	9 740
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 480	2 680
51	Avtomobilarni yuvish	44 660	28 110
52	Avtomobilarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	44 660	36 280
53	Avtomobilarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shoxobchalari)	54 280	39 310
54	Elektromobilarni quvvatlash shoxobchasi	23 660	17 136
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	25 080	18 140
56	Pochta aloqasi	13 800	9 744
57	Kurerlik aloqasi	27 840	19 820
58	Elektr-simli aloqa	27 840	19 820
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	116 920	83 770

Savdo va umumiyl ovqatlanish

60	Ulgurji savdo	38 970	28 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	100 100	71 560
62	Chakana savdo	38 970	28 000
63	Umumiyl ovqatlanish	38 970	28 000
64	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	61 010	43 790
65	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiyl ovqatlanish shoxobchalari	53 470	38 300
66	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'yalarida baliq mahsulotlari, shu jumladan, baliq taomlari savdosi, umumiyl ovqatlanishni tashkil etish*	38 970	28 000

67	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	61 010	40 430
68	Kitob do‘konlari	5 450	4 030
69	Lombardlar	50 340	36 060

Xizmat ko‘rsatish

70	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo‘jalik buyumlarini ijara berish joylari	38 970	28 000
71	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko‘rsatish (nusxa ko‘chirish xizmati)	38 970	28 000
72	Kompyuter o‘yinlarini tashkil etish	58 460	42 000
73	Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq munosabatlar	38 970	28 000
74	Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari	38 970	28 000
75	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	69 600	49 616
76	Mehmonxona xo‘jaligi	44 540	31 800
77	Umumiy yashash joylari	34 680	24 300
78	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	22 410	15 970
79	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta‘mirlash ustaxonasi	33 520	24 300
80	Hammomlar	67 040	47 930
81	Saunalar va basseynlar	133 630	95 760
82	Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	22 380	15 900

Sog‘lijni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot

83	Sog‘lijni saqlash	27 840	19 820
84	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan, laboratoriya)	51 270	37 180
85	Sayyoqlik va dam olishni tashkil etish	27 840	19 820
86	Fitobar	19 250	13 770
87	Madaniy ko‘ngilochar markazlar (bilyard, o‘yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	44 540	31 800
88	Suv bo‘yida plyaj zonalarini tashkil etish*	27 840	19 820
89	Baliq ovlash maskanlari*	27 840	19 820
90	Qayiqda suzish va suv sayohati bo‘yicha boshqa xizmarlar ko‘rsatish*	27 840	19 820
91	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo‘ylarida turizm xizmatlarini tashkil etish*	27 840	19 820
92	Jismoniy tarbiya va sport	13 800	9 740
93	Dorixonalar	22 380	15 900

94	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	46 860	25 200
95	Ijtimoiy-dorixonalar	19 830	12 880

Ta'lim

96	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	22 410	15 900
97	O'quv kurslarini tashkil etish (IT-kurslari)	45 930	33 260
98	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	17 470	13 000
99	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lif muassasalari uchun)	11 250	8 110
100	Oliy va o'rta maxsus ta'lif muassasalarida umumiyligini ovqatlanish	27 140	19 600
101	Umumiyligini o'rta ta'lif maktablarida umumiyligini ovqatlanish	13 800	9 740
102	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lif muassasalarida umumiyligini ovqatlanish)	9 860	7 390
103	Madaniyat va san'at	38 970	28 000
104	Ko'rgazmalar	30 040	22 510
105	Madaniyat va dam olish bog'lari	27 840	19 820
106	Botanika bog'lari va zooparklar	27 840	19 820
107	Televideniylar va radioeshlittirishlar redaksiyalari	27 840	19 820
108	Kinostudiylar, ovoz yozish studiyalari	44 540	31 810
109	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	16 930	11 870
110	Avtomaktablar	24 700	14 110

Moliya-kredit faoliyati

111	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	38 970	28 000
112	Auditorlik faoliyati	38 970	26 200
113	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	38 970	28 000
114	Bank faoliyati	38 970	28 000

Faoliyatning boshqa turlari

115	Sug'urta va notarial xizmatlar	38 970	28 000
116	Sud va yuridik xizmat muassasalari	33 520	24 300
117	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	33 520	24 300
118	Jamoatchilik birlashmlari	11 250	7 840

119	Omborxonalar	38 970	28 000
120	Davlat tashkilotlariga ofis	16 930	11 870
121	Xususiy tashkilotlarga ofis	61 010	43 790
122	Arxiv xizmati	16 930	9 960
123	Tahririyat va nashriyotlar	22 380	15 900
124	Metallokom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulotlarini to‘plash joylari	22 380	15 900
125	Turar joy-kommunal xo‘jaliklari	22 380	15 900
126	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagи transport vositalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish	44 540	31 800
127	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	33 870	24 520
128	Laboratoriyalar	27 840	19 820
129	Turli xizmat turlari to‘lovlari (paynet)	111 820	79 960
130	Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va h.k)	32 940	23 850
131	Avia kassalar (shu jumladan, temir yo‘l, avtovtransport va boshqalar)	61 010	43 790
132	Bankomatlar	557 720	399 390
133	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	38 970	24 300

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo‘llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-sentabrdagi “Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 441-son qaroriga asosan qo‘shilgan faoliyat turlari.

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 26-yanvardagi
62-8-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**2024-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara to‘loving eng kam
stavkalariga qo‘llaniladigan hududiy zonalar koeffitsiyentlari (Kz)**

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Hududiy (Zonalar)	Hududiy (zonalar) koeffitsiyenti
1.	Termiz shahar	shahar hududi bo‘yicha	2,8
2.	Denov tumani	tuman markazi	2,8
		boshqa hududlari	2,5
3.	Jarqo‘rg‘on tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
4.	Qumqo‘rg‘on tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
5.	Angor tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
6.	Sariosiyo tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
7.	Uzun tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
8.	Sherobod tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
9.	Termiz tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
10.	Boysun tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
11.	Sho‘rchi tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
12.	Oltinsoy tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0
13.	Muzrabot tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
14.	Qiziriq tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0
15.	Bandixon tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 26-yanvardagi
62-8-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

2024-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara to‘lovining eng kam stavrakalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara to‘lovlari hisoblash tartibi

A. Ko‘chmas mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara

to‘lovini hisoblash tartibi:

Ko‘chmas mulklarning holati va qurilish turiga qarab qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar:

1. Qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyenti (K_k)

1.1. Qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyent K_q

- alohida turgan bino	- 1,6
- binoning ichki qismidagi xonalar va taqab qurilgan	- 1,2
- binoning ustki qismi, cherdak	- 0,9
- yarim yerto‘la, yerto‘la	- 0,6
- betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar	- 1,6
- texnologik hududlar (maydon)da va betonlangan maydonga o‘rnatilgan uyali aloqa antennalari uchun	- 0,0

1.2. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti K_h

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mayjud bo‘lganda

- 0,7

- texnologik hududlar (maydon)da va betonlangan maydonga

- 0,2

o‘rnatilgan uyali aloqa antennalari uchun

- binoning ichki qismi (bino ichidagi xonalar) va binoning ustki qismi uchun (uyali aloqa antennalari uchun)	-0,0
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------

1.3. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti K_o

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda

- 1,2

- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda

- 1,0

- radio, uyali aloqa va peydjing aloqa antennalari o‘rnatilganda

-1,1

Bino va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts=EsxKzx(Kq+Kh+Ko)$$

Bunda:

- | | |
|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| T _s | - bir yilga bir kv.m uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi; |
| E _s | - 1-ilovaga muvofiq faoliyat turiga ko‘ra bir yilga bir kv.m uchun ijara to‘lovining eng kam stavkasi; |
| K _z | - hududiy (zonalar) koeffitsiyenti; |
| K _q | - qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyenti; |
| K _h | - tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti; |

- Ko** - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti;

B. Asosiy vositalarga ijara to‘lovlari hisoblash tartibi

Ijara to‘lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Kb x Sk x Ok

Asosiy vositalarga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar:

Kb	-	Qayta baholangandan keyingi qiymati
Sk - 0,30	-	Soha koeffitsiyenti
Ok - 1,4	-	Oshirish koeffitsiyenti

Asosiy vositalarning holatidan qat‘i nazar - 1,4 oshirish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi.

V. Avtotransport vositalariga ijara to‘lovlari hisoblash tartibi

Ijara to‘lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Kb x Sk x Ok

Avtotransport vositalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar:

Kb	-	Qayta baholangandan keyingi qiymati
Sk - 0,30	-	Soha koeffitsiyenti
Ok - 1,3	-	Oshirish koeffitsiyenti

Avtotransport vositasining holatidan qat‘i nazar - 1,3 oshirish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi.

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 26-yanvardagi
62-8-0-Q/24-son qaroriga
4-ilova

**Radio, uyali peydjing aloqa antennalarini (texnik uskunalar) o‘rnatalganda foydalaniladigan maydon
uchun 2024-yilda ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi**

**Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, boloxona (shuningdek, davlat mulki bo‘lgan
inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o‘rnatalganda:**

$$Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).$$

Ts –bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo‘yicha hisoblanadi).

Kz – hududiy (zona) koeffitsiyenti.

Kq – 0,9

Kh – 0

Ko – 1,1

**2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarga (texnologik hududlar)
o‘rnatalganda:**

$$Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).$$

Ts –bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo‘yicha hisoblanadi).

Kz – hududiy (zona) koeffitsiyenti.

Kq – 0

Kh – 0,2

Ko – 1,1

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar o‘rnatalganda:

$$Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).$$

Ts –bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo‘yicha hisoblanadi).

Kz – hududiy (zona) koeffitsiyenti.

Kq – 1,2

Kh – 0

Ko – 1,1

4. Amal qilish muddati navbatdagi yilga o‘tadigan davlat ko‘chmas mulkini ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha bo‘lajak yil davri uchun ijara to‘lovining miqdori qo‘sishimcha shartnomada (kelishuv) bilan kelgusi yilga tasdiqlangan ijara to‘lovining eng kam miqdorlariga mutanosib tarzda o‘zgartirilib, quyidagi tartibda hisoblanadi.

$$\text{Ts2} = (\text{Es2}/\text{Es1}) * (\text{As}/\text{Im})$$

Bunda:

Ts2 — kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining miqdori;

Es1 — avvalgi yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

Es2 — kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

As — auksion natijalari bo‘yicha belgilangan yillik ijara to‘lovi;

Im — shartnomada bo‘yicha ijaraga olingan maydon.

Qo‘sishimcha izoh:

Ijaraga olingan davlat mulklaridan foydalanish hamda ijara to‘lovi summalarini belgilash tartibi, bajariladigan qo‘sishimcha xarajatlar, kommunal to‘lovlari va yer soliqlarini to‘lash, ijaraga olingan davlat mulkularini kapital ta’mirlash, qo‘sishimchalar qilish ishlari uchun sarflangan xarajatlarni to‘lash tartiblari to‘g‘risida;

a) bino-inshoot hamda asosiy vositalar va avtotransport vositalarini kapital ta’mirlash, qo‘sishimchalar kiritish ishlarini bajarish uchun sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar “Balans saqlovchi”ga taqdim etilganda va tomonlarni roziligi bilan, ushbu sarflangan mablag‘lar summasi ijara shartnomasiga bo‘yicha “Balans saqlovchi”ga to‘lanishi lozim bo‘lgan ijara to‘lovi summasidan chegirib qolinishi mumkin. Ijara vaqtida olingan mahsulot va foyda “Ijaraga oluvchi” ning mulki hisoblanadi;

b) belgilangan ijara to‘lovi summasiga yer solig‘i, communal xarajatlar (va boshqa turdagani xizmatlar) kiritilmagan bo‘lib, ushbu xarajatlar bo‘yicha “Ijaraga oluvchi” va “Balans saqlovchi” (mulk egasi) o‘rtasida asosiy ijara shartnomasiga qo‘sishimcha alohida shartnomada tuziladi va ushbu shartnomada bo‘yicha “Ijaraga oluvchi” mazkur xarajatlarni to‘lash majburiyatini oladi;

d) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va/yoki ta’lim oluvchilar uchun xizmat ko‘rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlar bo‘yicha) ijara haqi hisoblashda yozgi ta’til davri uchun oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 3 (uch) oy muddatga ijara to‘lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara haqi hisoblanishi mumkin.

e) O‘qitishga ixtisoslashgan nodavlat harbiy maktablar, avtomobil maktablari uchun ushbu nodavlat maktab talaba va o‘quvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi o‘quv xonalari, oshxona, bufet va boshqa savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalariga ijara to‘lovlari o‘quvchilarning yozgi ta’til davri uchun (yilning iyun, iyul va avgust oylari) chegirib beriladi.